

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845094>

KURSANTLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH TAMOYILLARI

Karimov Bobur Bagadirovich

O'R QK Akademiyasi ilmiy tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqola kursantlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tamoyillariga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakl, metod va vostalarini amaliyatga keng joriy etish zaruratini shakllantirish masalalariini yoritishga bag'ishlangan.

Tayanch tushunchalar: ma'naviyat, tarbiya, mexanizm, tamoyil, metod, shakl, axloq.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена освещению вопросов совершенствования содержания образования, формирования необходимости широкого внедрения в практику инновационных форм, методов и средств к тенденциям духовно-нравственного воспитания курсантов.

Ключевые слова: духовность, воспитание, механизм, принцип, метод, форма, мораль.

ABSTRACT

The article is devoted to highlighting the issues of the formation of spiritual and moral education of cadets during extracurricular time.

Key words: spirituality, education, mechanism, principle, method, form, morality, lesson.

Jamiyat taraqqiyotining ehtiyoji sifatida paydo bo‘lgan pedagogika yaxlit ta’limot tarzida o‘zining bir-biriga bog‘liq umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi (didaktika), tarbiya nazariyasi hamda boshqarish pedagogikasi kabi tarkibiy qismlarga ega. Jamiyat rivojining ehtiyoji sifatida paydo bo‘lgan bu fan uning taraqqiyot darajasiga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Bu o‘zgarish uning hamma sohasi (predmeti) va tarkibiy qismlariga ham taalluqlidir. Shuning oqibatida uning maktabshunoslik qismi bazasida hozirgi kunda yangi yaxlit bir fan – boshqarish pedagogikasi fani ham shakllandi.

Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy rivojlanish qancha tezlashsa, shaxsning ma’naviy-axloqiy sifatlariga bo‘lgan talab ham shuncha oshadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan shaxs kamoloti bir-biriga to‘g‘ri mutanosib va o‘zaro dialektik bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs kamolotiga har tomonlama ta’sir qilib unga talablar qo‘yadi, o‘z navbatida shaxsning kamolot darajasining oshishi jamiyat rivojini tezlashtiradi.

Bu holat jamiyat va shaxs rivojining qonuniyati sifatida insonga yangi sifatlarni shakllantirish, uni ma’naviy va kasbiy jihatdan takomillashuvini taqozo qiladi. Buning oqibatida ko‘pgina yangi fanlar paydo bo‘lmoqda. Agar bu jarayonni pedagogika fani misolida ko‘radigan bo‘lsak, keyingi o‘n yilliklarda umumiy pedagogika bazasida 10 dan ortiq pedagogik fanlar paydo bo‘lib, jamiyatda yashash huquqini oldi, shaxs ta’lim-tarbiyasida o‘z o‘rnini egalladi. Bular maktabgacha ta’lim pedagogikasi, oila pedagogikasi, xalq pedagogikasi, malaka oshirish pedagogikasi, umumiy pedagogika, kasbiy pedagogika, oliy maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, qiyosiy pedagogika, harbiy pedagogika, axloq tuzatish pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika va h.k. Pedagogikaning bunday tarmoqlanish jarayoni hali tugagani yo‘q.

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya umumjamiyat ishiga aylandi. Keyingi yillar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, insonni butun umri davomida tarbiyalash lozim. Ammo inson hayotining turli davrlarida uning ta’lim-tarbiyaga ehtiyoji va munosabati turlicha bo‘ladi. Yoshlar bilim, hunar o‘rganib jamiyatda o‘z o‘rnini egallahni ko‘zlasa, katta yoshdagilar farzandlarini tarbiyalash, o‘zlarini shaxs sifatida ma’naviy-ma’rifiy

o'stirish, malakalarini takomillashtirish, yangi kasb egallash nuqtai nazaridan pedagogikaga yondashadilar.

Pedagogikaning tarmoqlanishi va ta'lim-tarbiyaning butun jamiyat doirasida ta'sirining kuchayib borishida tarbiyaning o'mi alohida namoyon bo'lmoqda. Buning o'ziga xos sababi bor. Ta'lim bilan tarbiya birligida tarbiyaning o'rni shu bilan belgilanadiki, oliy ta'lim muassasasi kursantsi o'rgangan bilimlarini qanday maqsadga qaratadi - ezgulik, go'zallik, moddiy-ma'naviy boyliklar yaratib, fan cho'qqilarini egallab jamiyat rivojiga hissa qo'shishgami yoki vayronagarchilik, terrorizm, go'zallik va odamlarni xarob qilishgami? Buni, albatta insonning tarbiyalanganlik darajasi belgilaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya bilimlarni ishonch, e'tiqodga aylantirib, shaxsga undan foydalanish yo'nalishini belgilab beradi. Shuning uchun mustaqillik sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotganta'lim islohoti, uning modeli markazida barkamol inson shaxsini tarbiyalash bosh maqsad qilib qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga jiddiy qarash zarur. Ma'naviy-axloqiy tarbiya eng avvalo oily ta'lim muassasalari kursantlariga jamiyatda yashash, ijtimoiy sifatlarni egallab olishlarining eng ta'sirchan vositasidir.

Ma'naviy-axloqiy kursantlarning ijtimoiy munosabatlar tizimida ishtirok etib, bir-birlariga ta'sir qilib insoniy xislatlarni egallab olishlariga yordam beradi. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga shunchaki bir o'tkinchi hodisa deb qarab bo'lmaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jamiyatda abadiy davom etadigan jarayon bo'lib, o'z tarkibiy tuzilishi: maqsad, moddiy baza, tamoyil, qonuniyatlar va metodlar, shakl va vositalar, subyekt va obyekt, boshqarish va natijaga erishish kabilalar bilan yaxlit pedagogik tizimdir. Boshqa ijtimoiy tizimlardagidek, ma'naviy-axloqiy tarbiya ham uni tashkil qilishda ma'lum qonuniyatlarga rioya qilishni zarurat qilib qo'yadi.

Pedagogik jarayonlar ham shaxsning shakllanishida muhim, mohiyatli takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlarni ifodalaydi. Bu o'zaro bog'lanishlar jamiyat, uning ijtimoiy munosabatlari, shaxs va muhit, insonlarning o'zaro ta'sirida muhim, umumiy,

ichki va mohiyatli bog‘lanishlardan kelib chiqadi. Shuning uchun biz insonning biron bir sifati yoki xususiyati haqida gapirar ekanmiz, undagi bu xislatlar boshqa kishilar va jamiyatdagi munosabatlar bilan o‘zaro aloqadorlikda shakllanishini e’tibordan soqit qilmasligimiz kerak. Shundan kelib chiqib, ma’naviy-axloqiy tarbiya qonuniyatlarini pedagogik hodisa va jarayonlarning o‘zaro aloqalaridan keltirib chiqarmoq lozim.

Biron bir nazariya, ta’limot, fan, dunyoqarash, g‘oya, siyosiy tashkilot, jamiyatning asosiy qoidalari bo‘lib, busiz ular o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Mazkur fan, ta’limot shu hodisalar asosida amal qiladi, o‘z sohasini o‘rganadi. Shu bilan birga biron sabab, mexanizmning tuzilishi, ishslash tamoyilining tub xususiyatlarini ham ifodalashi mumkin. Dunyoqarash – o‘ziga va voqelikka munosabatini belgilovchi e’tiqod, xulqatvor me’yorlari ham ma’lum g‘oyaviy, axloqiy tamoyillarga tayanadi. Shaxsningma’lum g‘oyaga e’tiqodi asosida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy munosabatlarda aniq bir nuqtai nazarga ega bo‘lishi uning maslagining prinsipi (tamoyili) hisoblanadi.

Mustaqillik sharoitida ma’naviy-axloqiy tarbiya butun jamiyat ishi bo‘lib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan, tarbiyaviy jarayon milliyashib, uni insonparvarlashtirish, yakka shaxsni emas, balki butun jamiyat, jamoalarni tarbiyalash, ularning ma’naviy dunyosi, ongi, tafakkurini o‘zgartirish ijtimoiy zaruratga aylanganda bu tarbiya tamoyillari yaroqsiz bo‘lib qoldi. Mustaqillik sharoitida kishilarni gumanistik, umumbashariy va milliy qadriyatlar, urf-odat, an’analar ruhida tarbiyalash zaruriyati ma’naviy-axloqiy tarbiya tamoyillarini tasnif qilishda axloqiy, insonparvarlik va jamoaviy xususiyatlar ma’naviy-axloqiy tarbiyani belgilovchi tamoyillar bo‘ladi. Tamoyillar milliy istiqlol mafkurasining gumanistik g‘oyalariga asoslanishi kerak.

Ma’lumki, tarbiyaviy jarayonlar yaxlit tizim sifatida bir-biriga bog‘liq hodisalarning sabab va oqibat tarzida rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi pedagogik hodisalar ma’lum qonuniyatlar asosida o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ularni bilish ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslarini ilmiy jihatdan egallab olish, boshqarish va rejalashtirish uchun muhim negiz sifatida xizmat qiladi. Har bir

pedagogik hodisa ma'lum sabablarga ko'ra vujudga kelib, muayyan natijaga olib keladi. Shuning uchun u yoki bu pedagogik jarayon yoki hodisani keltirib chiqargan sabablarni aniqlash, ularni faqat bilibgina qolmasdan, ijobjiy ta'siridan foydalanish, salbiylarining oldini olish imkoniyatini beradi. Shu asosda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini ilmiy asosda boshqarish, uni shaxs kamolotiga yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kursantlar ma'lum kasbni egallash va shu asosda ijtimoiy-mehnat faoliyatining subyektiga aylanish arafasida turgan shaxs hisoblanadi. Yoshlarni tarbiyalash jarayoni haqida fikr yuritar ekanmiz, mazkur jarayonda amal qiluvchi ayrim tushunchalar va atamalarning qo'llanish (amal qilishi) sohasi haqida o'z tajribamiz va mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz. Chunonchi, ma'naviyaxloqiy tarbiya qonuniyatları va tamoyillarining o'zaro munosabati haqida gap ketganda shuni ta'kidlash kerakki, qonuniyatlar amal qilishi va qamrab olishi jihatidan ancha keng hamda muntazam bog'lanishlarni aks ettiradi. Ular tamoyillarga qaraganda umumiyoq xarakterga ega. Tamoyillar tarbiyaviy ishlarni olib borishda tarbiyachi tarbiyaviy ta'sirni oshirish uchun o'z faoliyatida tamoyillarga rioya qilishi, ularning talabidan kelib chiqishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga xos bo'lgan xususiy qonuniyatlardan yana biri – uning maqsad va vositalarining bir-biriga mos kelishidir. Maqsad va vositalarning dialektik birligi tarbiyaning tuzilishi va o'zaro funksional bog'liqligini ifodalaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning uzoqni ko'zlagan istiqboli - strategik va unga bog'liq yaqinni ko'zlagan maqsadlari - taktik bo'lishi mumkin. Har bir jamiyatning ijtimoiy ideallari bo'lib, u kishilarning hayot tarzida o'z aksini topadi. Jamiyat a'zolari shular asosida o'zlarining qisqa muddatli rejalarini va unga muvofiqharakat, xulq-atvorini belgilab oladi. Oily ta'lim kursantsining strategik maqsadi o'qishni bitirish, mutaxassis sifatida hayot yo'lini belgilash, kelajakda yetuk kasb sohibi va obro'li odam bo'lish. Yaqin maqsadlari - o'quv yili 1-yarim yilligi imtihonlarini va o'quv yilini muvaffaqiyatli yakunlash. Shu asosda kursant o'z

jismoniy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy tarbiyasi yo'nalishini belgilab, o'z faoliyatini unga bo'yundiradi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-axloqiy tarbiya ham ma'lum qonuniyatlar va tamoyillarga rioya qilib, o'z navbatida tarbiyaning talablari, maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Bu tamoyillar hozirgi davrda milliy g'oyaga hamohang tarzda ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mafkuraning g'oyaviy yo'nalishini amalga oshiruvchi muhim vositaga aylanadi. Bu esa ma'naviy-axloqiy tarbiyaning g'oyaviyligi va maqsadga yo'naltirilganligi qonuniyatiga obyektiv amal qilishi bilan kursantlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishdagi nutqi.//Vatanparvar, 2024. 15 yanvar.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-tom. "Xamsa", ("Hayrat ul-abror"), -T., Fan, 1991, - 390 b.
3. Asamiddinov E.A. Axloqiy madaniyat va uning rivojlanish xususiyatlari. Fal.fan. nom. ... dis. – T., 1999.- 145 b.
4. Begmatov A., Rustamova R. Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar. – T.: Ma'naviyat, 2007.- 64 b.
5. Ma'naviyatning asosiy tushunchalar izohli lug'ati/ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. - Toshkent: G'.G'ulom, 2009. -760 b.
6. Oripova www.tdpu.uz
7. www.Ziyonet.uz